



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



60	Saida NORMAMATOVA, Surxondaryo qipchoq shevalarida chorvachilik oid leksika	703
61	Feruza QOSIMOVA, O‘zbek dialektologiyasida qo‘llanilgan transkripsion belgilar tizimi	707
62	Dilnoza RAIMBERDIYEVA, “Oychinor” dostonining fonetik dialektizmlari tahlili	711
63	Shohida MAMARAJABOVA, Uzun tumani areali bo‘ylab qo‘ng‘irot shevalarining tarqalishi	713
64	Shahzoda MURODOVA, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida boshlanma	717
65	Mohidil RAJAMATOVA, Parkent tumani folklori namunalari tahlili	723
66	Holida HUSANOVA, “Zarbulmasal”dagi maqollar tahlili	726
67	Gulsevar TURSUNOVA, Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga qo‘shgan hissasi	730
68	Malika AMINJONOVA, Namangan o‘zbek shevalarining o‘zbek adabiy tiliga munosabati	735
69	Behruz BOBOYOROV, O‘zbek tilida blingvizm hodisasi va uning o‘rganilish talqinlari	739
70	Nazokat QODIROVA, Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari leksikasining tematik guruhlar	745
71	Shodiya QOSIMOVA, Muyassar XOLOVA, O‘zbek milliy korpusiga yozma matnlarni kiritishning metodologiyasi: tematik va metama’lumotli (Mingbuloq tumani misolida)	748
72	Muborak XAYDAROVA, Muyassar XOLOVA, Dialekt va nutq madaniyati	751
73	Muxlisa KUCHIMOVA, Mifologiyada hayvon obrazlarining badiiy ifodasi	748
74	Marjona TOG‘AY, “Qoraqayun” romanida qo‘llangan leksik dialektizmlar tahlili	752

“ZARBULMASAL”DAGI MAQOLLAR TAHLILI

ANALYSIS OF PROVERBS IN "ZARBULMASAL"

Holida HUSANOVA,

ToshDO‘TAU 4-kurs talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/ACAB4393

Annotation. *This article analyzes the proverbs in Muhammad Sharif Gulkhani's work “Zarbulmasal”, identifies the role and function of proverbs in the work, and reveals the important role of proverbs in shaping the plot.*

Key words. *“Zarbulmasal”, proverb, plot, Gulkhaniy, speech of hero’s.*

Gulxaniyning ijodiy faoliyati XIX asr o‘zbek adabiyotida ma’rifatparvarlik ruhini kuchaytirishga qaratilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi xalqning axloqiy qarashlarini, ijtimoiy ongini va tarbiyaviy qadriyatlarini badiiy shaklda ifodalashdan iborat edi. Shoir o‘z asarlarida xalq og‘zaki ijodini yozma adabiyot bilan bog‘lab, maqollar, hikmatli so‘zlar va ramziy ifodalar orqali jamiyatdagi muammolarni ko‘rsatishga intildi.

“Zarbulmasal” asarida Gulxaniy xalq maqollarini badiiy matnga singdirib, ularni tarbiyaviy vosita sifatida qo‘lladi. Uning ijodiy maqsadi – xalqni halollik, odob, mehnatsevarlik, birdamlik kabi qadriyatlarga da’vat etish, jamiyatda axloqiy mezonlarni mustahkamlash va ijtimoiy ongni shakllantirish edi. Masalan, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” maqoli orqali oilaviy tarbiyaning ahamiyatini ko‘rsatgan, “Yomon do‘st – balo, yaxshi do‘st – davo” maqoli orqali esa insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda do‘stlikning qadriyat sifatida singdirilishini ta’minlagan. Gulxaniy ijodida hajviy va tanqidiy ruh ham muhim o‘rin tutadi. U jamiyatdagi illatlarni, nodonlik va jaholatni maqollar orqali fosh etib, xalqni o‘ylashga, mulohaza qilishga undagan. Shu jihatdan uning ijodiy maqsadi faqat badiiy zavq berish emas, balki tarbiyaviy va ijtimoiy ongni shakllantirish vazifasini ham bajarish edi.

Olimlar fikriga ko‘ra, Gulxaniy o‘z ijodida xalq og‘zaki ijodini yozma adabiyot bilan bog‘lab, o‘zbek nasrining shakllanishida muhim bosqich yaratgan. Folklorshunos olim To‘ra Mirzayev “Zarbulmasal”ni yozma adabiyotda xalq poetikasining davomiyligi sifatida talqin qiladi [Mirzayev 1985]. Shavkat Rasulov esa Gulxaniyning ijodiy maqsadini jamiyatda axloqiy qadriyatlarni singdirish va badiiy nutqni boyitish bilan bog‘laydi [Rasulov 2015].

“Zarbulmasal”da maqollar bir necha yo‘nalishda ishlatilgan:

Qahramonlar nutqida. Bunda maqollar asosan suhbatlarda va qahramonlarning so‘zlarida uchraydi. Bu usul ularning xarakterini ko‘rsatadi va nutqini o‘ziga xos qiladi. Masalan, Boyo‘g‘li va uning atrofida qilargilarning qo‘pol, ochko‘z tabiatini tasvirlashda “It kallasini silasang, tabaqda turmas” degan maqol ishlatiladi. Bu maqol Boyo‘g‘lining minnatdorlikni bilmasligi va yaxshilikni qadrlay olmasligini kinoya bilan ifodalaydi.

Donishmand qahramonlar Ko‘rqush, Yapaloqqush so‘zida esa “Bilimsiz bilagi yo‘g‘on birni urar, bilimlik bilagi ingichka barchani farosat birla sinar” maqoli qo‘llanadi. Bu orqali aql va kuch o‘rtasidagi farq ko‘rsatiladi. Asarda maqollar qahramonlarning ijtimoiy va axloqiy darajasini ochib beradi.

Maqollar syujetning muhim burilish nuqtalarida qo‘llanilib, voqealar rivojini ta’minlab beradi. “Ikki suyuklik bir ko‘ngilga sig‘mas” maqoli qudachilik munosabatlaridagi ichki ziddiyatlarni chuqurlashtirib, syujetdagi oilaviy va ijtimoiy konfliktini keskinlashtiradi. Toshbaqa va Chayon epizodida “Chayon do‘stining boshini tishlar”ga yaqin ma’noli maqollar xiyonat mavzularini keskin ifodalaydi. Maqollar asar voqealarini boyitib, unga qo‘shimcha ma’no beradi. Bu orqali asar faqat bir chiziqda emas, balki bir necha qatlamda o‘qiladi: asosiy voqea boradi,



lekin maqollar unga qo'shimcha fikt, kinoya yoki saboq qo'shib, o'quvchiga kengroq tasavvur uyg'otadi. Har bir kichik masal-hikoya oxirida maqol keltirilib, voqeaga axloqiy xulosa beriladi. Bu usul asarni epizodik bo'lishdan saqlaydi va yaxlitlikni ta'minlashga xizmat qiladi.. Masalan, "So'zni aytgil uqqang'a, jonni jong'a suqqang'a, aytib so'zni netarsan, onadin yomon tuqqang'a" maqoli suhbatlarda qo'llanilib, voqeani falsafiy va hajviy jihatdan jonlantiradi.

Gulxaniy maqollarni hajv vositasi sifatida mohirona qo'llagan. Boy amaldorlar va nodon qahramonlarni fosh etishda "Haromzodaning quyrug'i bir tutam" yoki "Har kimning o'z qo'li o'z og'ziga yetadi" kabi maqollar orqali ijtimoiy tanqid amalga oshiriladi. Bu maqollar asarga o'tkir kinoya va estetik zavq bag'ishlaydi.

Maqollarning qo'llanish uslubi jihatidan Gulxaniy ularni to'g'ridan to'g'ri keltirish bilan birga, o'zgartirish, moslashtirish va kengaytirish usullaridan ham foydalangan. Natijada, maqollar asar matniga to'liq singib ketgan va uni xalqona ruh bilan to'ldirgan. Bu yondashuv asarni "Kalila va Dimna" yoki "Guliston" kabi klassik asarlardan ajratib turadigan milliy xususiyatni yaratgan.

Umuman olganda, "Zarbulmasal"da maqollarning qo'llanishi ko'p qirrali va tizimli bo'lib, ular asarning syujetini rivojlantirish, obrazlarni yaratish, voqealarni jonlantirish va estetik ta'sirchanlikni oshirishda markaziy rol o'ynaydi. Gulxaniyning bu mahorati asarni o'zbek adabiyotida zarbulmasal janrining eng mukammal namunasi darajasiga ko'targan. "Zarbulmasal" asarida maqollar badiiy nutqni boyituvchi, qahramon xarakterini ochuvchi, jamiyat qadriyatlarini ifodalovchi va estetik ta'sirchanlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida qo'llangan. Gulxaniy xalq og'zaki ijodini yozma adabiyot bilan bog'lab, maqollar orqali asarning tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirgan.

Adabiy asarda syujet – bu voqealar zanjirining mantiqiy rivoji, konfliktlarning kuchayishi, kulminatsiya va yechim bosqichlarini o'z ichiga olgan dinamik tizimdir. Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida maqollar syujetning muhim harakatlantiruvchi va tashkil etuvchi elementi sifatida namoyon bo'ladi. Maqollar syujetda statik xulosa yoki bezak sifatida emas, balki dinamik badiiy vosita sifatida qo'llanilgan. Ular voqealar zanjirini bog'lash, konfliktni chuqurlashtirish, syujet chizig'ini oldinga surish, kichik epizodlarni asosiy syujetga organik birlashtirish va syujetning umumiy ritmini ta'minlash vazifalarini bajaradi. Gulxaniy maqollarni syujetning har bir bosqichida: ekspozitsiya, rivojlanish, kulminatsiya bosqichlarida mohirona joylashtirgan holda uni yaxlit, mantiqiy va badiy jihatdan mukammal kompozitsiyaga aylantirgan. "Zarbulmasal"da maqollar voqealarning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladi. Ular qahramonlarni biror ishga undaydi, voqealarning qanday yakun topishini oldindan ko'rsatadi va asarning asosiy tarbiyaviy g'oyasini voqealar orqali yetkazadi. Shu jihati bilan "Zarbulmasal" Sharq adabiyotidagi bu janrning o'ziga xos milliy namunasi sifatida ajralib turadi.

"Zarbulmasal"ning asosiy syujeti Yapaloqqush va Boyo'g'li o'rtasidagi qudachilik munosabatlari atrofida qurilgan bo'lib, unda bir qancha kichik masal-hikoyalar parallel ravishda rivojlanadi. Maqollar bu syujetda quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

Syujetni oldinga surish va bog'lash vazifasi Maqollar voqealar rivojini tabiiy ravishda oldinga suradi. Masalan, Ko'rqushning Yapaloqqushga bergan maslahatlarida "Bo'l! Og'iz bo'lma, quloq bo'l!" maqoli qo'llaniladi. Bu maqol Boyo'g'lining xarakterini baholash va keyingi harakatlarni rejalashtirish uchun asos bo'lib, syujetning keyingi bosqichlarini sovcilik, muzokaralar, nizolar uchun harakatlantiruvchi bo'lib xizmat qiladi.

Konfliktni kuchaytirish vazifasi Syujetdagi markaziy konflikt ya'ni qudachilikdagi ijtimoiy va axloqiy ziddiyat maqollar orqali keskinlashadi. "It kallasini silasang, tabaqda turmas" maqoli Boyo'g'li va uning atrofida gilar suhbatida ishlatilib, ochko'zlik va minnatdor bo'lishni bilmasligi, yaxshilikni qadrlay olamaslik xususiyatlarini ochib beradi. Natijada, oila ichidagi oddiy ko'ringan kelishmovchiliklar kengroq ijtimoiy muammoga aylanib, asarda keskinlikni oshiradi.

Kichik syujet chiziqlari asosiy voqeaga qo'shib, bir butun hikoya hosil qiladi. Asarda ko'plab kichik hikoyalar, jumladan, Toshbaqa va Chayon, Tuya va Bo'taloq, Bozanda va Navozand kabi hikoyalar mavjud bo'lib ularda qo'llanilgan "Chayon do'stining boshini tishlar"ga yaqin ma'noli maqollar Toshbaqa va Chayon epizodida qo'llanilib, xiyonat mavzusini asosiy



qudachilik syujetiga parallel ravishda bog'laydi. "Ikki suyaklik bir ko'ngilga sig'mas" maqoli esa oilaviy munosabatlardagi ziddiyatlarni chuqurlashtirib, syujetni faqat tashqi voqealar bilan cheklab qo'ymaydi, balki ichki ruhiy va falsafiy qatlamni ham ochib beradi.

Syujetning kulminatsion nuqtalarini tayyorlash va xulosa berish vazifasi. Har bir muhim voqea yoki epizod oxirida maqol keltirilishi syujetga ritmik beradi. "Bilimsiz bilagi yo'g'on birni urar, bilimlik bilagi ingichka barchani farosat birla sinar" degan maqol kuch va aql o'rtasidagi qaram-qarshilikni ko'rsatadi. U shuni anglatadiki, faqat jismoniy kuchga tayanadigan odam bir kishini yengishi mumkin, ammo bilimli va aqli inson ko'plab muammolarni hal qila oladi. Bu fikr asarda axloqiy xulosa sifatida beriladi va o'quvchiga voqearning umumiy natijasini tushunishga yordam beradi.

"Zarbulmasal" da maqollar faqat mazmunni to'ldiruvchi vosita emas. Ular asarning ohangini, ritmini belgilab, voqealarning oqimini jonlantiradi. Ularning qisqa va qofiyali tuzilishini voqealarning tezroq rivojlanishiga yordam beradi. Gulxaniy maqollarni syujetning har bir bosqichiga mohirona joylashtirgani boisidan ham asar epizodlarga bo'linib ketmaydi, balki yaxlit dramatik harakatga ega bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, Zarbulmasaldagi maqollar syujetning eng muhim harakatlantiruvchi kuchidir. Ular voqealarni oldinga suradi, ziddiyatlarni kuchaytiradi, epizodlarni bir butun qiladi. Shu sabablardan ham "Zarbulmasal" o'zbek adabiyotida syujet qurish san'atining yorqin namunasi sifatida qadrlanadi.

Badiiy asarda qahramon nutqi uning xarakterini, ijtimoiy kelib chiqishini, ma'naviy darajasini, dunyoqarashi va psixologik holatini ochishning eng muhim vositalaridan biridir. Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida maqollar qahramonlar nutqining asosiy va organik tarkibiy qismiga aylangan. Muallif maqollarni qahramonlarning oddiy gaplari ichiga mohirona singdirgan holda, ularning nutqiy portretini yaratadi. Maqollar orqali qahramonning individual uslubi, leksik boyligi, temperament va axloqiy holati aniq namoyon bo'ladi.

Boyo'g'li kabi salbiy qahramonlarning nutqi dag'al, ochko'zlik va qo'pollikni ifodalovchi maqollar bilan to'ldirilgan bo'lsa, Yapaloqqush, Ko'rqush kabi ijobiy va donishmand obrazlarning nutqi hikmatli, o'ychan va falsafiy maqollar bilan ajralib turadi. Bu usul nafaqat qahramonlarni individualizatsiya qiladi, balki asarning hajviy-satirik ruhini kuchaytiradi, ijtimoiy tanqidni chuqurlashtiradi va o'quvchida kuchli estetik ta'sir uyg'otadi. Gulxaniy maqollarni qahramon nutqida qo'llash orqali xalq og'zaki ijodining boyligini mumtoz adabiyotga olib kirgan va zarbulmasal janrining milliy o'ziga xosligini yaratgan. "Zarbulmasal"da maqollar qahramonlarning nutqida turli vazifani bajaradi. Ular qahramonning xarakterini ochadi, jamiyatdagi o'rnini ko'rsatadi, ichki dunyosini ifodalaydi va suhbatlarni yanada ta'sirli qiladi. Muallif maqollarni faqat to'g'ridan-to'g'ri keltirib qo'ymaydi, balki ularni suhbatga moslab ishlatadi. Shu sababli qahramonlarning nutqi jonli va tabiiy chiqadi.

Boyo'g'li va uning atrofidagilarning nutqi asosan dag'al va foydaparast maqollar bilan to'ldirilgan. Eng yorqin misol "It kallasini silasang, tabaqda turmas" maqoli. Maqol orqali uning qo'polligi, yaxshilikni qadrlay olmasligi va ijtimoiy axloqdan uzoqlig ko'rinadi. Ya'ni muallif uning so'zlarini dag'al va oddiy xalq tilida ifodalab, qahramonni jiddiy emas, balki kinoyali va kulgili tarzda tasvirlaydi.

Donishmand qahramonlar nutqida esa maqollarning qo'llanishi ularning tabiatidagi uzoq tajribali, ichki kuch va ustunlik tomonlarini ochib beradi. Ayniqsa asardagi Ko'rqush va Yapaloqqushning nutqi hikmatli maqollar bilan ajralib turadi. Ko'rqush nutqida qo'llanilgan "Bilimsiz bilagi yo'g'on birni urar, bilimlik bilagi ingichka barchani farosat birla sinar" maqoli Ko'rqushning tajribali, o'ylovli, maslahatgo'y xarakterlarini ochib beradi. "Bo'li og'iz bo'lma, quloq bo'li" maqoli esa Ko'rqushning ehtiyotkorligi va mas'uliyatli ekanligini ifodalaydi. Bunday maqollar qahramon nutqini bir so'zda ko'p ma'nolarni ifodalashiga va falsafiyaytirishiga xizmat qiladi. "So'zni aytgil uqqang'a, jonni jong'a suqqang'a, aytib so'zni netarsan, onadin yomon tuqqang'a" maqoli esa Ko'rqush nutqida qo'llanilib, uning turli harakterli insonlarni anglayolishi, kimga qanday muomala qilish borasida naqadar tajribali ekanligini isbotlaydi.

Asardagi maqollarning yana bir ahamiyatli tarafi shundaki, maqol orqali qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati ham ifodalanadi. Masalan: “Ikki suyuklik bir ko‘ngilga sig‘mas” maqoli Yapaloqqushning ichki kechinmalarini ifodalashda xizmat qiladi. Yapaloqqushning O‘g‘li taqdiri haqidagi xavotir va qudachilik ziddiyatlari haqidagi o‘ylar maqol orqali ochib berilgan.

Asarda maqollar qahramon nutqida nafaqat falsafiy, balki dramatik vazifani ham bajaradi. Ular dialoglarni qisqartirib, lo‘nda so‘z orqali chuqur ma‘no ifodalaydi, mazmunini chuqurlashtirib, suhbatni qisqa va ta’sirchan qiladi. Gulxaniy maqollarni qahramon xarakteriga mos ravishda tanlaganligi sababli, har bir personajning nutqi o‘ziga xos bo‘lib, asarning umumiy badiiy yaxlitligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulova Sh. Bolalar adabiyoti nazariyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015.
2. Mirzayev T. Maqollar poetikasi. – Toshkent: Universitet, 1985.
3. Zarifov H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent, 1960.
4. Ibrohimova Z. Maqollarning estetik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent, 1987.
6. Rasulov Sh. Maqollar va yozma adabiyot. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
7. Jo‘rayev H. O‘zbek bolalar folklori. – Toshkent: Sharq, 2002.
8. Rasulov Sh. Maqollarning klassik adabiyotdagi poetik vazifasi. Adabiyotshunoslik tadqiqotlari, – № 2, 2015.
9. Azim Suyun. Yomg‘ir yog‘ib o‘tdi. Adabiyot 6-sinf darsligi, 1-qism. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2019.
10. Is‘hoqov F. Gulxaniy va uning “Zarbulmasal” asari. – Toshkent: Fan, 1972.
11. Qo‘shjonov M. Mohiyat va badiiyat. – Toshkent: Fan, 1987.
12. Tojamatova S. Zarbulmasal poetikasi. – Toshkent: Fan, 2021.
13. Mirzayev T. Maqollar poetikasi. – Toshkent: Universitet, 1985.
14. Rasulov Sh. Bolalar adabiyoti nazariyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015.